№2

FEVRAL
2025

# MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*



Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI

# Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,*
*328 sahifa, fevral, 2025-yil.*

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**BOSH MUHARRIR:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

**TAHRIR HAY'ATI:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
**Sharipov Kongratbay Avazimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)

# Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro‘yxatga kiritilgan.

**M u a s s i s: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ**

**H a m k o r l a r i m i z:**

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yoʻnalishlarini rivojlantirish xususiyatlari ......17
**Xolmurzayev Sobir Nazarovich**

Tashqi iqtisodiy sharoitlar oʻzgarishining oʻzbekistondagi narxlar darajasiga ta’siri......23
**Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich**

The main influencers of the quality assurance in tertiary education ......29
**Shakirova Dilfuza Tulkunovna**

Xizmat koʻrsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish......35
**Sultonov Sanjar Jaxongir oʻgʻli**

Oʻzbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi......41
**Normamatov Ne’mat Daminovich**

Ta’lim menejerining professionalligini shakllantirishning oʻziga xos xususiyatlari ......45
**Abdullayev Oʻtkir Sadullayevich**

Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari......57
**Hatidje Nasirova**

Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi......65
**Amonov Mehriddin Oromiddinovich**

Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida ......70
**Sayfulina Alfira Feratovna**

Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida......79
**Suvonov Hasan Sherboyevich**

Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами......84
**Алишев Шеркузи Абдуманнонович**

Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini ragʻbatlantirish tizimini rivojlantirish ......91
**Tolliboyev Samad Tolliboy oʻgʻli**

Sugʻurta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yoʻllari ......99
**Umirov Abdisalom Toʻrayevich**

IOTtarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish ......105
**Abdugʻaniyev Bekzod Burxon oʻgʻli**

Tarmoq xavfsizligini ta’minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar ......110
**Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich**

Qishloq xoʻjaligi tarmogʻida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli......114
**Ishniyazov Baxrom Normamatovich**

Sugʻurtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali sugʻurta mukofoti va toʻlovlarni amalga oshirishni takomillashtirish......120
**Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich**

Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari......128
**Muxiddin Eshmuradov**

Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta’siri......133
**Sharofiddin Ismatov Asatulloyevich**

Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari ......137
**Joʻrayev Xusan Atamuratovich**

Ish oʻrinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yoʻllari ........ 143
**Dilshod Toʻrayev**

Davlat tashkilotlarida gʻaznachilik va davlat xaridlari bilan bogʻliq jarayon holatining tahlili ........ 147
**Mamasoliyev Abrorbek Abdugʻani oʻgʻli**

Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari ........ 152
**Salomat Norova**

Moliyaviy sektorni soliqqa tortish ........ 159
**Komolov Odiljon Sayfidinovich**

Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi ........ 165
**Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich**

Oʻzbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari ........ 171
**Kaxxarov Ulugʻbek Xalmatovich**

Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlari ........ 177
**Azamatov Poʻlat Toʻlqunovich**

Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning oʻziga xos xususiyatlari ........ 183
**Normurodov Alibek Anvar oʻgʻli**

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilgʻi-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari ........ 189
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi ........ 196
**Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumuradova Farangiz Damirovna**

Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va ragʻbatlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari ........ 201
**Rajabbaeva Dildora Zakirovna**

Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий ........ 206
**Махмудова Гулжахон Нематджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи**

Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari ........ 215
**Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna**

Toʻqimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari ........ 220
**Sadriddinova Nigora Khusniddinovna**

Uzum yetishtiruvchi fermer xoʻjaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash ........ 227
**Boltayev Nazarbek Narzullayevich**

Совершенствование управленческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития ........ 236
**Киличева Ф.Б.**

Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yoʻllari ........ 241
**Muxitdinov Ulugbek Diyarovich**

Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari ........ 246
**Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon oʻgʻli**

Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar ........ 255
**Muxammadov Umarjon Muxammad oʻgʻli**

Kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli ........ 260
**Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich**

Qoyali zaminlarda gravitatsion toʻgʻonlar tasnifi ........ 264
**Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich**

Improvement of financing the innovation projects of business entities ........ 270
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna**

Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yoʻllari ........ 278
**Rustamov Eldor Baratovich**

Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari ........ 285
**Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich**

Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yoʻllari ........ 291
**Xurramova Madina Mansur qizi**

Oʻzbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlar ........ 300
**Qurbonov Samandar Pulatovich**

Oʻzbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va koʻpaytirish masalalari ........ 309
**Saxibjonov Muzaffar Salijanovich**

Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish ........ 316
**Shamansurova Zilola Abduvahitovna**

Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tarmoq va sohalarning oʻrni ........ 322
**Ayubov Ilyos Ilxomovich, Xudoynazarov Dilbek Baxodir oʻgʻli**

MUHANDISLIK ИНЖЕНЕРИЯ ENGINEERING



# MAMLAKAT MILLIY IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ VA SOHALARNING O'RNI

**Ayubov Ilyos Ilxomovich**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
i.f.f.d., PhD, dotsent.

**Xudoynazarov Dilbek Baxodir o'g'li**
Samarqand iqtisodiyotva servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi
tgmaverick221@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining tarmoqlari va uning tarkibiga kiruvchi turli iqtisodiy sohalarning ko'rsatkichlari, ularning milliy iqtisodiyotimiz rivojlanishiga qo'shadigan ulushlari haqida ma'lumotlar ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, ushbu tarmoq va sohalardagi turli o'zgarishlar, yangiliklar va innovatsiyalarning samaradorligi hamda turli davrlarni o'z ichiga oluvchi har xil ko'rsatkichlar va raqamlar misollar orqali keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, tarmoq, soha, rivojlantirish, kredit, davlat budjeti, iqtisodiy muammo, yalpi ichki mahsulot (YaIM).

Abstract: The following article provides information about the sectors of the national economy of the Republic of Uzbekistan and various indicators of various economic sectors that are part of it, their contribution to the development of our national economy. At the same time, various changes in these sectors and areas, the effectiveness of innovations and innovations, and various indicators and figures covering different periods are presented through examples.

Keywords: national economy, industry, sector, development, credit, state budget, economic problem, gross domestic product (GDP).

Аннотация: В данной статье представлена информация об отраслях народного хозяйства Республики Узбекистан и различных показателях различных экономических секторов, входящих в ее состав, а также их вкладе в развитие нашей национальной экономики. При этом приводятся примеры различных показателей и цифр, охватывающих разные периоды, об эффективности различных изменений, инноваций и новостей в этих секторах и отраслях.

Ключевые слова: национальная экономика, промышленность, сектор, развитие, кредит, государственный бюджет, экономическая проблема, валовой внутренний продукт (ВВП).

# KIRISH

Milliy iqtisodiyot – ijtimoiy iqtisodiyotning mavjud shakli, mamlakat hududida yashovchi millatlarning tarixan shakllangan yoki tubdan yangilanayotgan, oʻzgarayotgan va rivojlanayotgan mulkiy hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, ular bilan shartlangan, mahalliy xususiyatlarga ega boʻlgan iqtisodiy faoliyat sohalari tizimi hisoblanadi. Aslida, milliy iqtisodiyot deganda biror davlatning iqtisodiyoti tushuniladi. Yer yuzida nechta mamlakat boʻlsa, shuncha milliy iqtisodiyot mavjud. Oʻzbekiston Respublikasining olib borayotgan iqtisodiy islohotlari ham milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Milliy iqtisodiyotni yaxlit bir tizimda shakllantirish va xorijiy investitsiyalar kiritish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Erkin iqtisodiyotni amalga oshirish orqali mamlakatning obroʻsini oshirish, yaxlit bir sistema asosida oʻzgarishlar va innovatsiyalar kiritish, aholining ijtimoiy ahvolini yanada yaxshilash hamda mamlakatda aholining daromadlarini oshirish kabi muhim vazifalar birma-bir amalga oshirilib kelinmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YaIM), ya'ni aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan daromadlarning yildan-yilga ortib borishi ham milliy iqtisodiyotimizning rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Tan olish kerakki, mustaqillik arafasida iqtisodiyotimiz qoloq davlatlar iqtisodiyotining yillik koʻrsatkichlari bilan teng boʻlsa, teng edi, lekin yuqori emasdi. Ammo yillar oʻtgan sari iqtisodiyotimizda olib borilgan keng koʻlamli ishlar, uning tarmoqlarini va sohalarini yuksaltirish uchun qilingan va qilinayotgan sa'y-harakatlar iqtisodiy ahvolimizni dunyo miqyosida ancha koʻtardi. Shu jumladan, Respublikamiz rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qoʻshildi. Hozirda dunyodagi koʻplab davlatlar, jumladan, eng rivojlangan davlatlar – AQSh, Yaponiya, Rossiya, Kanada, Xitoy va boshqa mamlakatlar – biz bilan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqalarini kuchaytirishni boshladilar. Yurtimizda jahon tajribasini qoʻllash orqali koʻzlangan maqsadlarga erishish ehtimolligi yanada yaxshilandi.

# MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida tarmoqlar va sohalarning oʻzaro uygʻunligi, ularning oʻziga xos dinamikasi yetakchi omil sifatida koʻrib chiqiladi. Ushbu masala boʻyicha qator olimlar tomonidan asosli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Pol Samuelson oʻzining “Iqtisodiyot” asarida milliy ishlab chiqarishning tarmoqlar kesimida diversifikatsiyalash zarurligini ta'kidlab, iqtisodiy barqarorlik va oʻsish uchun bir necha sohalarning parallel rivojlanishini asoslab bergan. U iqtisodiy sikllarning yumshatilishi hamda resurslar taqsimotining samaradorligi koʻp tarmoqli iqtisodiy model bilan ta'minlanishini koʻrsatgan.

Jozef Stiglits “Development as Freedom” asarida milliy iqtisodiy oʻsishning ijtimoiy va tarmoq sohalaridagi taqsimotiga alohida e'tibor qaratgan. U iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishi orqali jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirish, innovatsiyalarni ragʻbatlantirish va aholi farovonligini oshirish mumkinligini ilmiy asosda tahlil qilgan. Stiglits iqtisodiy siyosatda agrar, sanoat va xizmatlar sohalarining oʻzaro muvofiqligini mustahkamlash zaruratini koʻrsatadi.

M.D. Bazarov va Sh.R. Xoliqov oʻzbek iqtisodiyoti uchun xos boʻlgan milliy tarmoqlar tizimini tahlil qilgan holda, “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarining milliy iqtisodiy barqarorlikdagi oʻrni va rolini izchil ochib bergan. Ularning fikricha, qishloq xoʻjaligi, sanoat va xizmatlar sektori oʻrtasida sogʻlom nisbatni saqlash iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlaydi.

M. Porter “Milliy ustunlik” kontseptsiyasida tarmoqlar va sohalarning raqobatbardoshligini milliy iqtisodiyotning global maydondagi pozitsiyasi bilan bogʻlaydi. Porterning fikricha, oʻzaro bogʻliq sohalarning (klasterlarning) rivojlanishi milliy iqtisodiy salohiyatni sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, texnologik innovatsiyalarga asoslangan tarmoqlarning rivoji iqtisodiy oʻsish sur'atlarini kuchaytiradi.

F. Qosimov va A. Gʻulomov “Makroiqtisodiyot” darsligida mamlakat iqtisodiyoti uchun real tarmoqlararo balans modelini koʻrsatib, ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashgan strukturasi va uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilgan. Mualliflar tarmoqlararo uzviylik va oʻzaro bogʻliqlik milliy iqtisodiy tizimni tashqi va ichki zarbalarga nisbatan barqarorlashtiruvchi omil sifatida namoyon boʻlishini ilmiy asosda bayon etadi.

X. Chenery o‘zining iqtisodiy rivojlanish modellari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida ishlab chiqarish tarmoqlarining strukturaviy o‘zgarishlari orqali iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlarini ko‘rsatgan. U agrar iqtisodiy modeldan sanoatlashtirilgan iqtisodiyotga o‘tishdagi bosqichlarni tizimli tarzda tahlil qilgan va bu jarayonda tarmoqlararo o‘zgarishlarning ahamiyatiga alohida urg‘u bergan.

O‘zbekiston olimlari orasida G‘. Xidirov va Sh. Shodmonov ham o‘z izlanishlarida mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlar va sohalar bo‘yicha rivojlanish xususiyatlarini chuqur tahlil etishgan. Ular “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash: holati va istiqbollari” nomli monografiyada zamonaviy sanoat tarmoqlari va xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalarini milliy strategik rivojlanish rejalari bilan uyg‘unlashtirish masalasini ko‘tarib chiqqan.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tarmoqlar va sohalarning tizimli va uyg‘un rivojlanishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi, balki ijtimoiy farovonlik va innovatsion rivojlanishni ham jadallashtirishini ko‘rsatadi.

## TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining tarmoqlari va sohalarining rivojlanishi, taraqqiy etishi hamda ushbu sohalarda amalda olib borilayotgan ishlar natijalarining tahlili yoritib beriladi. Unda Davlat statistika agentligining yalpi ichki mahsulot hajmi to‘g‘risida so‘nggi yillarda bergan statistik ma’lumotlariga tayangan holda qiyosiy tahlil o‘tkazildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarining YaIM ko‘rsatkichlari hozirgi davrga kelib trillion dollardan oshgani aytilmoqda. O‘zbekistonning YaIM ko‘rsatkichi 2024-yil yakuniga ko‘ra 115 milliard dollarga yetgani davlatimiz Prezidenti tomonidan yil yakunlariga bag‘ishlangan selektorda rasmiy bayonot bilan ma’lum qilindi. Har bir davlatning milliy iqtisodiyoti qanchalik darajada qudratli ekanligini uning yuqorida keltirib o‘tilgan yalpi ichki mahsulot hajmi orqali bilib olish mumkin. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yildagiga nisbatan 6,5 % ga oshgan, 2023-yilda YaIM hajmi 90,8 milliard dollarni tashkil qilgan. 2024-yilning yanvar-iyun oylari holatiga ko‘ra aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi joriy narxlarda 15 million 347 ming so‘mni tashkil etgan, bu ko‘rsatkich 2023-yil holatiga ko‘ra 29 million 291 ming so‘mni (2496 AQSh dollari) tashkil qilgan.

Endi milliy iqtisodiyotdagi tarmoq va sohalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari uchtani tashkil etadi: birlamchi tarmoq, ikkilamchi tarmoq va uchinchi tarmoq. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari uchta sanalsa-da, hozirgi kunga kelib ular beshta tarmoqni tashkil qilmoqda. Birlamchi tarmoq o‘z ichiga tabiiy resurslar va qishloq xo‘jaligi doirasidagi sohalarni oladi; ikkilamchi tarmoq ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalaridan iborat; uchinchi tarmoq esa xizmat ko‘rsatish sohalarini qamrab oladi. To‘rtinchi va beshinchi tarmoqlarga esa ilmiy-tadqiqot va yuqori texnologiyalar sohalari kiradi.

Bu tarmoqlar haqida to‘liqroq ma’lumot beradigan bo‘lsak:

- Birlamchi tarmoq (tabiiy resurslar va qishloq xo‘jaligi) – qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon sanoati, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilikni o‘z ichiga oladi.
- Ikkilamchi tarmoq (ishlab chiqarish va qayta ishlash) – yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va metallsozlik, energetikani qamrab oladi.
- Uchinchi tarmoq (xizmat ko‘rsatish) – savdo va logistika, turizm va mehmondo‘stlik, moliyaviy xizmatlar, aloqa va IT xizmatlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash, madaniyat va ko‘ngilochar xizmatlarni o‘z ichiga oladi.
- To‘rtinchi va beshinchi tarmoq (ilmiy-tadqiqot va yuqori texnologiyalar) – ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar, yuqori darajadagi boshqaruv va maslahat xizmatlari sohalaridan iborat.

Yuqorida sanab o‘tilgan tarmoqlar va sohalar milliy iqtisodiyotimizning yalpi ichki mahsulotini (YaIM) shakllantiradi (1-rasm).




1-rasm. YaIM o'sishida tarmoqlarning hissasi dinamikasi (foizda, %)[1]

Yuqoridagi diagramma shaklidagi statistik ma'lumotlar 2023-yilning yakunlariga ko'ra YaIMning tarmoqlar va sohalardagi ulushi keltirib o'tilgan. Unga ko'ra, YaIM hajmi 2019-yilda 6 % ga, keyingi yili esa ancha kamroq – 2 % ga oshgan. 2019–2023-yillar mobaynida eng katta ko'tarilish 7,4 % ni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2021-yilga to'g'ri keladi. 2023-yilda esa bu raqamlar yana 6 % ga o'sgan. Ushbu raqamlar tarmoqlar kesimida farqlanadi. Masalan, qishloq xo'jaligi va baliqchilik tarmog'ida 2023-yilda 1 % ijobiy o'sish qayd etilgan.

2024-yil yanvar-iyun oylarida yalpi ichki mahsulot hajmi qariyb 6,4 % ga oshgani ko'rinmoqda. Tarmoqlar kesimida esa eng katta ijobiy ko'rsatkich sanoat tarmog'iga to'g'ri kelmoqda, eng kam o'sish esa ishlab chiqariladigan mahsulotlarga to'lanadigan sof soliqlar hissasiga to'g'ri keladi (0,3 %). Qishloq, o'rmon va baliqchilik tarmog'ida 0,7 %, qurilishda 0,6 %, xizmat ko'rsatish tarmog'ida 0,7 %, axborot va aloqa tarmog'ida 0,8 %, boshqa xizmat tarmoqlarida 1,3 % ko'tarilish qayd etilgani 2-rasmda ko'rsatilgan.

2024-yilning yanvar-iyun oylariga to'g'ri keladigan YaIM hisobotlariga to'xtaladigan bo'lsak, bizga YaIMning 2023-yil yakunlari va 2024-yilning yanvar-iyun oylarida berilgan raqamlaridan shuni anglash mumkinki, sanoat hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik tarmoqlari milliy iqtisodiyotimizning eng asosiy kuchlaridan hisoblanadi.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, milliy iqtisodiyotimizning eng asosiy va katta kuchi – bu sanoatdir. Chunki O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini kuchaytirishda bozor tamoyillariga asoslanib ish ko'rilayotgan bo'lsa, bunda tijorat eng asosiy vazifa hisoblanadi. Milliy ishlab chiqarishni yuksaltirish, tizimlashtirish va integratsiyalash hozirda amalga oshirilayotgan rejali ishlardan biridir. Bu esa amalda tarmoqlarning YaIMga qo'shadigan ulushlari ko'payishiga va shu o'rinda mamlakatimizning dunyo miqyosidagi o'rnining oshishiga olib keladi, deb taxmin qilinmoqda.

Viloyat iqtisodiyotining eng asosiy kuchi sifatida qishloq, o'rmon va baliqchilik tarmog'i qaralmoqda va bu tarmoq respublikaning yalpi ichki mahsulotiga qo'shadigan eng yirik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Undan keyin sanoat tarmog'i va undan so'ng xizmat ko'rsatish tarmog'i keladi. Viloyatda qishloq xo'jaligi sohasida olib borilgan va olib borilayotgan ishlar salmog'i juda katta, chunki qishloq xo'jaligi mamlakatda eng ko'zga ko'ringan sohalardan biridir.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi / O'zbekiston Respublikasi davlat statistikasi vebsayti.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti hozirgi kunga kelib bozor tamoyillariga asoslanmoqda. Mustaqillik arafasida va undan keyingi davrda ham davlatimiz siyosati agrar-industrial sharoitda olib borilgan. Hozirgi kunda esa bu faoliyat bozor tamoyillariga tayanmoqda.

Mamlakatimiz dunyo miqyosida rivojlanayotgan davlatlar qatorida turibdi va qisqa muddat ichida rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilish reja qilingan. Ushbu vazifa esa endi yetishib chiqayotgan yosh kadrlar, iqtisodchilar va boshqa sohadagi mutaxassislarning zimmasiga yuklatilgan. Buning uchun tarmoq va sohalarni chuqur o‘rganish, keng qamrovli tahlil qilish, muammo va masalalarga turli xil yechimlar taklif qila olish qobiliyatiga ega bo‘lish kabi xususiyatlarni egallagan kadrlar zarur. Ana shunday bilim va salohiyatga ega yoshlar milliy iqtisodiyotni kuchaytirishga xizmat qiladigan muhim resurslar hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. Textbook. – New York: McGraw-Hill Education, 2010. – 800 p.
2. Joseph E. Stiglitz. Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company, 2002. – 304 p.
3. Michael E. Porter. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
4. Hollis B. Chenery, Moises Syrquin. Patterns of Development, 1950–1970. – London: Oxford University Press, 1975. – 242 p.
5. Dani Rodrik. The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy. – New York: W.W. Norton & Company, 2011. – 368 p.
6. ngus Deaton. The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality. – Princeton: Princeton University Press, 2013. – 376 p.
7. Daron Acemoglu, James A. Robinson. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. – New York: Crown Business, 2012. – 529 p.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi / O‘zbekiston Respublikasi davlat statistikasi vebsayti. Stat.uz.

# Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**